

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**  
**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERISTETI**

**IQTISODIYOT FAKULTETI**

*Qo‘lyozma huquqida*  
**UDK:338:6S3 (575.1)**

**O‘KTAMOV BEHZOD RAVSHAN O‘G‘LI**

**SANOAT KORXONALARIDA INVESTITSİYALARDAN FOYDALANISH**  
**SAMARADORLIGI OSHIRISH**

**70310102 – Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)**  
**mutaxassisligi bo‘yicha**

Magistr  
akademik darajasini olish uchun yozilgan

**D I S S Y E R T A S I Y A**


**Ilmiy rahbar:**  
Iqtisodiyot fanlari doktori,  
dots. J.S. Fayzullayev

**TOSHKENT – 2024**

Magistrlik dissertatsiya ishi “Yashil” iqtisodiyot kafedrasida dastlabki himoyadan o‘tgan.


15 sonli bayonnoma « 23 » aprel 2024 y.

Ilmiy rahbar: Fayzullayev J.S.

  
imzo

20.05.2024.  
sana

Magistrant: O‘ktamov B.R.


  
imzo

20.05.2024  
sana

Dissertatsiya Iqtisodiyot fakultetida 2024 yil “ 20 ” 05

№ 1/25 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

**“Himoyaga tavsiya etiladi”**

“Yashil” iqtisodiyot kafedrasini  
mudiri, dots. I.Xotamov 

“ 05 ” may 2024 yil

Himoya 2024 yil “ 20 ” 05 soat 14<sup>00</sup> da Texnoparkda bo‘lib o‘tadi.

## ANNOTATSIYA

Mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining muxim sharti investitsiya faoliyatni rivojlantirish bo'lib, u barqoror iqtisodiy o'sishga zamin yaratadi, sanoat tarmog'ining strategik maqsadlarini amalga oshirishga yordam beradi. Ushbu dissetatsiyada sanoat korxonalarida investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish vazifalari, maqsadi va yo'nalishlari bayon etilgan. Investitsion loyihalarni sanoatni rivojlantirish maqsadida davlat tomonidan tartibga solishning turli modellari tahlil qilingan. AQSH, Kanada, Germaniya, Avstriya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Italiya, Finlyandiya, Yaponiya kabi mamlakatlar tajribasi tahlili amalga oshirilgan. Har bir mamlakat miqyosida investitsiyalardan foydalanish qisqacha mazmuni, funksiyalari, asosiy ustunlik va kamchiliklari keltirilgan. Aniqlangan muammolarni yechish maqsadida iqtisodiyot tarmoqlarining raqobatbardoshligini oshirishda investitsiyalardan foydalanish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Sanoat korxonalarida investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha belgilangan vazifalar, ilmiy yangiliklar va xulosalar shakllantirildi hamda har bir yangilikka mos xulosa va takliflar keltirildi.

***Kalit so'zlar:** sanoat korxonalarini, investitsion loyihalar, innovatsion rivojlanish, loyihalarni joriy etish, sanoat rivojlanishning asosiy muammolari, statistik qiymatlar, investitsion jarayonlar, iqtisodiy o'sish, investitsion mexanizm, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm, investitsion muhit.*

## ANNOTATION

The prerequisite for the economic development of the country is the development of investment activity, which sets the stage for solid economic growth, helps to realize the strategic goals of the industrial sector. This dissection describes the tasks, goals and directions of improving the efficiency of the use of investments in industrial enterprises. Various models of state regulation have been analyzed for the purpose of industrial development of investment projects. Analysis of the experience of such countries as the USA, Canada, Germany, Austria, France, Great Britain, Italy, Finland, Japan has been carried out. Summary, functions, main advantages and disadvantages of the use of investments on the scale of each country are presented. In order to solve the identified problems, proposals and recommendations for the use of investments in increasing the competitiveness of sectors of the economy have been developed. Established tasks, scientific innovations and conclusions were formulated to improve the effectiveness of the use of investments in industrial enterprises, and conclusions and suggestions were drawn corresponding to each innovation.

**Keywords:** *industrial enterprises, investment projects, innovation development, project introduction, main problems of industrial development, statistical values, investment processes, economic growth, investment mechanism, organizational and economic mechanism, investment environment.*

## MUNDARIJA

<b>KIRISH.....</b>	<b>8</b>
Disertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.....	8
Tadqiqot maqsadi va vazifalari.....	9
Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari.....	10
Tadqiqot ishining obyekti va predmeti.....	10
Tadqiqot natijalarining ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati.....	11
Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi.....	11
<b>I BOB. ADABIYOTLAR SHARHI VA TAHLILI.....</b>	<b>13</b>
1.1. Manbalarda keltirilgan tadqiqotlar natijalari.....	13
1.2. Tadqiqot bo'yicha o'rganilgan adabiyotlar sharxi.....	20
1.3. Tadqiqot gipotezasi .....	23
<b>II BOB. TADQIQOT METODOLOGIYASI.....</b>	<b>27</b>
2.1. Tadqiqot nazariy va metodologik asoslari .....	27
2.2. Ma'lumotlarni to'plash jarayoni.....	28
2.3. Tahlil uchun qo'llaniladigan usullar.....	28
<b>III BOB. TADQIQOT TAHLILI VA NATIJALAR.....</b>	<b>29</b>
3.1. Sanoat sohasiga investitsiyalar jalb etishning hozirgi holati va uning tendensiyalari .....	29
3.2. Investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirishning xorijiy tajribalar qo'llanishi .....	41
3.3. Sanoat korxonalarida investitsion samaradorlikni shakllantirish bo'yicha tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari .....	49
<b>XULOSA VA TAKLIFLAR.....</b>	<b>67</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....</b>	<b>70</b>

## KIRISH

### **Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi**

Jahonda xorijiy investitsiyalar hajmi, sifati, qulay shartlardan foydalanish borasida rivojlangan mamlakatlarda yildan-yilga investitsiyalar samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan innovatsion instrumentlarning turli ko‘rinishlari yaratib kelinmoqda. Shunga qaramay, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar 34 foizga qisqarib, 528,2 milliard dollarni tashkil etdi, chunki yangi ish o‘rinlari yaratish 41 foizga kamayib, 1,4 millionga tushdi. 2023 yilda investitsiyalarning global oqimi uchdan bir qismga pasayib, 1 trln dollarga tushib, o‘n besh yil avvalgi jahon moliyaviy inqirozidan keyin erishilgan eng yomon darajadan ham ancha past bo‘ldi. Bu esa o‘z navbatida, investitsiya siyosati to‘g‘ri olib borilishini va investitsiyalardan samarali foydalanish yo‘llarini optimallashtirishda uning zamonaviy xususiyatlarini yetarli darajada hisobga olinishini talab etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmonida berilgan “29-maqсад: Tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiy sektorning Yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish” ga qaratilgan talablaridan kelib chiqib, 2026-yil borib tadbirkorlik sub’ektlariga soliq yuklamasini yalpi ichki mahsulotning 27,5 foizidan 25 foizi darajasiga kamaytirish. Hududlarda tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, ishsizlik va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha mavjud tuzilmalar faoliyatini takomillashtirish. Tadbirkorlik sub’ektlari o‘z faoliyatini boshlashi uchun zarur ma‘lumotlarni erkin foydalanishga chiqarish<sup>1</sup>.

Mazkur ilmiy-tadqiqot ishi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 28 yanvardagi «Investitsiya va tashqi savdo sohasida boshqaruv tizimini

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/5841063>.